

SINONIMLAR, SINONIMIK QATORDA BOSH SO'Z MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna
f.f.n., dots. Nukus DPI

Matyoqubova Mahliyo Davronbek qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
4-"A" guruh talabasi

Annotatsiya: *Sinonimlar-(yunoncha synonymom bir xil nomli so'zidan olingan) fonetik tarkibi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodoshlikning so'zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug'aviy) sinonimlar deyiladi.*

Kalit so'zlar: *sinonimlar, fonetik tartib, so'zlar, leksik ma'no, sinonimik takrorlash, stilistika, zamonaviy metodlar.*

Sinonimlar doim kutilmagan birliklarni yoki logik ma'nolarni beradi. Shuning uchun sinonimik takrorlash asarni stilistik jihatdan bezaydi.

Ma'nodoshlikning so'zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug'aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan: nomus-vijdon; dangasa-yalqov-ishyoqmas-tanbal so'zlari leksik sinonimlardir. Bunday so'zlar,odatda, bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ularning bir umumiy ma'no doirasida bog'lanishi esa sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan: vaqt-payt-zamon-fursat-mahal-chog'-kez-mavrid-palla-muddat-dam so'zlari o'zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so'z dominanta (bosh so'z) deb yuritiladi. Dominanta,odatda, uslubiy jihatdan betaraf va umumiste'mol so'zlardan bo'lib, sinonim so'zlar lug'atida birinchi o'rinda beriladi. Masalan: kasal-bemor-xasta-betob-notob sinonimik qatordagi kasal so'zi betaraf dominanta bo'lib, bemor- yozuvda ko'p qo'llaniladi, xasta- eskirgan so'z, ora-sira kasal bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi betob, notob so'zlari salbiy munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi. Sinonimlar yuzaga kelishida polisemantik so'zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so'z o'zining har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonim qatorida ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: balo- falokat- ofat; balo-uddabiron-bilog'on-ishbilarmon kabi ma'nodoshlik qatorida "balo" so'zi o'z va ko'chma ma'nosida ishtirok etgan.

Qatordagi ma'nosi hammaga tushunarli bo'lgan, nutqda faol qo'llaniladigan adabiy shakl sanalgan so'z bosh so'z deb yuritiladi.

Sinset sinonimlari orasida tegishli leksik ma'noni ifodalashning neytral va tez-tez uchraydigan ko'rinishi - dominant sinonim ajralib turadi. Aynan ushbu imkoniyat

uchun "O‘zbek tilining zamonaviy sinonimlari bazasi"da sinonimik qatordagi dominant ma'nodosh so‘z ajratib beriladi.

Sinonimlar tilni leksik ma'nodan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. Kishi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaligi shuncha ortadi.

Boshlang‘ich va yuqori sinflar uchun ma'nodosh so‘zlarga oid turli xil zamonaviy metodlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan: sinonim so‘zlar qatoridan foydalangan holda didaktik va aql mashqlarini, sinonim so‘zlar uyini topish, dominanta so‘zni topish kabi metodlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilariga sinonim so‘zlarni innovatsion usulda, ya'ni elektron o‘quv lug‘ati yordamida o‘rgatilgandan so‘ng o‘quvchilar xotirasida sinonim so‘zlar deyarli to‘liq saqlanib, barcha o‘quvchilar berilgan topshiriqni juda tez va xatosiz bajaradilar. Elektron o‘quv lug‘atlarida rasm va topshiriqlar bilan berilgan sinonim so‘zlar qatori qatorlarga mos tarzda rasmlar bilan birga berilganligi sababli ma'lumot tarzida olingan berilgan sinonim so‘zlarni esda saqlab qolish va ularni tanlashdan ko‘ra osonroqdir. Sinonimlarni o‘rgatish uchun taqdim etilayotgan elektron o‘quv lug‘atlari o‘quvchilarga sinonim so‘zlar qatori va ularning semantikasini yaxshiroq tushunishlari va eng asosiysi sinonimik qator tushunchasiga ega bo‘lishlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biz ular orqali sinonimik qatordagi bosh so‘zni aniq tushuntirib berishimiz mumkin.

Xulosalaydigan bo'lsak, sinonim so'zlar shunchaki hashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir. O‘quvchi yoshlarga sinonim so‘zlar mavzusini tushuntirish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchanov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tilini o‘qitish metodikasi- Toshkent- "Nosir" nashriyoti- 2009.
2. Atakhanovna, Y. G., & Azada, A. (2021, May). FEATURES OF THE USE OF MIXED EDUCATION IN UZBEK LANGUAGE CLASSES. In E-Conference Globe (pp. 77-80).
3. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., & Menglibayevna, B. S. (2023). ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KONIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(3), 42-49.
4. Tajimuratovna, X. M., Menglibayevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Menlibayevna, S. A. (2023). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING O ‘ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 25-30.
5. O‘zbek imo-ishoralar tili fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua - Toshkent- 2023.
6. Xalilova Ruxsora Raupovna. Ona tili o‘qitish metodikasi-o‘quv qo‘llanma- 2022. "Fan va ta'lim" nashriyoti.